**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH.**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MIRJONOV NOSIR NUMONOVICH**

# TIBBIY DISKURSNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**UO‘K: 811.512.133'276.6:61**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Mirjonov Nosir Numonovich**
Tibbiy diskursning kognitiv xususiyatlari ……. **3**

**Миржонов Носир Нумонович**
Когнитивные особенности медицинского дискурса …… **21**

**Mirjonov Nosir Numonovich**
Cognitive Features of Medical Discourse …….. **41**

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
Список опубликованных работ
List of published works ..... **45**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MIRJONOV NOSIR NUMONOVICH**

# TIBBIY DISKURSNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Fil6702 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **G‘aybullayeva Nafisa Izzatullayevna**<br>filologiya fanlari doktori (DSc), professor |
| **Taqrizchilar:** | **Umurqulov Bekpo‘lat**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| | **Raupova Laylo Raximovna**<br>filologiya fanlari doktori (DSc), professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Qarshi davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 7 noyabr soat $14^{00}$ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11. Tel.: (+99865) 221-29-14, 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1061 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11. Tel.: (+99865) 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 22-oktabr kuni tarqatildi.

(2026-yil 22-oktabrdagi 38-raqamli reyestr bayonnomasi).

**B.E. Kilichev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**M.Y.Xojiyeva**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**G.I.Toirova**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati**. Jahonda tibbiyot sohasi faqat klinik faoliyat bilan chegaralanmay, balki inson nutqi, tafakkuri va emotsional idroki, tushunishi, baholashi, empatiya va hissiy reaksiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kommunikativ jarayonga tayanadi. Shu bois tibbiy muloqotni lingvistik, psixologik va kognitiv nuqtayi nazardan tadqiq etish bugungi kunda tibbiy diskurs tahlilining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu diskursning o‘ziga xosligi shundaki, unda terminologik aniqlik, emotsional neytrallik va muloqot etikasi bilan bir qatorda kognitiv jarayonlar, inson ongidagi milliy-madaniy, ruhiy-falsafiy, mantiqiy bilimlar zahirasi hamda ularning og‘zaki va yozma nutq shakllarida semiotik belgilar orqali namoyon bo‘lishi ta’minlanadi. Bu esa diskursning o‘ziga xosligini belgilovchi vosita sifatida tilni ong bilan bog‘liq holda turli ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish zaruratini tug‘dirmoqda.

Dunyo tilshunosligida shifokor nutqini kognitiv va pragmalingvistik yondashuvlar asosida o‘rganish orqali ushbu turdagi nutqning diskursiv va pragmatik maqsadlarini, janrlarining o‘ziga xosligini, nutq harakatlarining vazifalari va xususiyatlarini aniqlashga bo‘lgan intilish kuchaymoqda. Jumladan, “shifokor – bemor” muloqotining o‘ziga xos xususiyatlarini kognitiv-kommunikativ yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilish, konseptlar, stereotiplar, emotsional so‘zlar, metaforik ifodalar, diskursiv strategiyalar hamda verbal va noverbal munosabatlar orqali ifodalanuvchi shakl va mazmun o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning nutq tuzilishiga ta’sirini aniqlash, tibbiy kommunikatsiya madaniyatini yuksaltirish, tibbiy ta’lim jarayonida lingvokognitiv kompetensiyani rivojlantirish hamda til va tafakkur integratsiyasini chuqur anglashga ehtiyoj ortmoqda.

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda yangi lingvokognitiv yo‘nalish sifatida lisoniy belgilar va ularning ifoda shakllari orasidagi munosabatlar turli soha mutaxassislari nutqi misolida tadqiq etilmoqda. Tibbiy diskursning kognitiv xususiyatlarini, ularning nutqda qo‘llanishini ijtimoiy muhit, madaniyat, milliylik kabi omillar uyg‘unligida tahlil etish davr talabiga aylandi. Zero, “bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son, 2025-yil 20-oktabrdagi “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-308-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi “Davlat tilini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz

rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 984-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi**. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** G‘arb tilshunosligida tibbiy diskursni tahlil qilishning ikkita yondashuvini ajratish mumkin. Birinchisi – AQShda sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan rivojlanayotgan klinik suhbatlar tahlili (tadqiqotchilar bu yondashuvni mikroanalitik deb ta’riflaydilar), ikkinchisi – Yevropada M. Fuko asarlarida ilgari surilgan falsafiy yo‘nalish bilan bog‘liq diskursiv tadqiqotlar[2]. Tibbiy diskurs sohasidagi tadqiqotlar natijalarini xorijiy tadqiqotchilar S.Poirier, D.Brauner, J. Kuipers, P. Atkinson, J. Vils ilmiy ishlarida yaqqol ko‘rish mumkin[3]. Tibbiy sotsiologiya sohasida R. Anspach, H. Vaitzkin, R.Charon, A.Verner, yozma va og‘zaki diskurs sohasida esa M. Gotti, F. Salager-Meyer[4] va boshqalar tomonidan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, rus tadqiqotchilari V. Borbotko, V. Babayan, S. Kruglova, M. Makarov, N. Alefirenko, L. Alekseyeva va S. Mishlanova, Ye. Bogatikova, A. Filippova, S. Mayboroda va boshqalarning asarlarida ham mazkur mavzu haqida fikr yuritilgan[5]. Tibbiy diskurs bo‘yicha esa M. Barsukova, L. Beylison, N. Gancharenko, V. Jura maxsus tadqiqotlar olib borgan[6].

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda tibbiyot tili va tibbiy muloqotni lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Tibbiy til masalasining ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. Abu Ali ibn Sinoning “Al-Qonun fi-t-tib” (“Tib

---

[2] Фуко М. Рождение клиники. – Москва: Смысл, 1998. – 310 с.

[3] Poirier S., Brauner D. Ethics and the Daily Language of Medical Discourse // The Hastings Center Report. 1988. Vol.18. № 4. – P. 5-9.; Kuipers J. “Medical Discourse” in Anthropological Context: Views of Language and Power // Medical Anthropology Quarterly. 1989. № 3. – P. 99-123.; Atkinson P. Medical discourse, evidentiality and the construction of professional responsibility // Talk, work, and institutional order: Discourse in medical, mediation, and management settings. 1999. – P. 75-108.; Atkinson P. Medical Talk and Medical Work. – London: Sage Publications, 1995. – 176 p.; Wilce J. Medical Discourse // Annual Review of Anthropology. 2009. № 38. – P. 199-215.

[4] Gotti M. Variations in Medical Discourse for Academic Purposes // Medical Discourse in Professional, Academic and Popular Settings. – Bristol: Multilingual Matters, 2016. – P. 9-30; Investigating Specialized Discourse. – Bern: Peter Lang, 2011. – 230 p. Advances in Medical Discourse Analysis: Oral and Written Contexts / ed. by Gotti M., Salager-Meyer F. Pieterlen: Peter Lang, 2006. – 492 p.

[5] Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. – Грозный: ЧИГУ, 1981. – 113 с.; Бабаян В.Н., Круглова С.Л. Теория дискурса в системе наук о языке // Ярославский педагогический вестник. 2002. № 3. – С. 55–57.; Макаров М. Л. Основы теории дискурса. – Москва: Гнозис, 2003. – 280 с. ; Алефиренко Н.Ф. Текст и дискурс. – Москва.: Флинта, 2012. – 232 с.; Алексеева Л.М., Мишланова С.Л. Медицинский дискурс: теоретические основы и принципы анализа. – Пермь: Изд-во Перм. ун-та, 2002. – 200 с.; Богатикова Е. П., Мишланова С. Л., Филиппова А.А. Особенности представления специального знания в медицинском дискурсе // Историческая и социально-образова-тельная мысль. 2014. № 3. – С. 215-217.; Майборода С.В. Медицинский дискурс: современные теоретико-методологические подходы и перспективы исследования // Коммуникативные исследования. 2017. № 1. – С. 63-74.

[6] Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. – Саратов, 2007. – 21 с.; Бейлисон Л.С. Характеристики медикопедагогического дискурса (на материале логопедических рекомендаций): дис. канд. филол. наук. – Волгоград, 2001. – 177 с.; Гончаренко Н.В. Суггестивные характеристики медицинского дискурса: дис. на соиск. учен. степ. канд. фил. наук. – Волгоград, 2007; Жура В.В. Речевые стратегии врача в устном медицинском дискурсе // Альманах современной науки и образования: Языкознание и литературоведение в синхронии и диахронии и методика преподавания языка и литературы: в 3 ч. – 2007. № 3, Ч. 2. – С. 59-61.

qonunlari”) asari tibbiy diskursning ilk nazariy asoslaridan biri sifatida ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida tibbiy lingvistika masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar soni hali ko‘p emas, ammo ayrim yo‘nalishlarda muhim tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M. Abuzalova, N. G‘aybullayeva, A. Qobilova, D. Sobirova, N. Qurbonova, G. Babayeva, F. Akbarxo‘jayeva, M. Navruzova, M. Yunusova tadqiqotlarida tibbiy lingvistika va tibbiy diskursning lingvopragmatik, kognitiv va kommunikativ strategiyalari tadqiq etilgan[7].

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2023-2026-yy.) mo‘ljallangan “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tibbiy diskursning kognitiv xususiyatlarini aniqlash, til vositalari orqali tibbiy bilimlarning shakllanishi, uzatilishi va talqin etilish mexanizmlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liq ravishda quyidagi vazifalar belgilandi:

tadqiqotning lingvistik asoslari bilan bog‘liq tushunchalarni sharhlash;

tibbiy nutqni tavsiflashda kognitiv-kommunikativ yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlash;

tibbiy diskursning konseptual maydonini aniqlash va asosiy konseptlarni tizimlashtirish;

milliy-madaniy komponentlarning konseptual shakllanishga ta’sirini o‘rganish, tibbiy diskursning lingvokognitiv modelini ishlab chiqish va uning ishlash mexanizmini ilmiy asoslash;

tibbiy bilimlarning inson ongida konseptualizatsiya qilinishi va til orqali verbalizatsiya qilinishi jarayonlarini tavsiflash, bilimlarni uzatishning kognitiv mexanizmlarini (kodlash, dekodlash, interpretatsiya) aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti s**ifatida o‘zbek tilidagi tibbiy diskurs, kommunikativ jarayonlar hamda tibbiy bilimlarning til orqali ifodalanishi va idrok etilishi bilan bog‘liq lisoniy hodisalar tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti**ni tibbiy diskursning konseptual tuzilishi, kognitiv modellari va ularning til birliklari orqali ifodalanishi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Ishda kognitiv, pragmatik, qiyoslash, tasniflash, leksikografik, komponent, kontekstual, statistik va konseptual tahlil usullaridan

[7] Ғайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар: Филол.фан.бўйича фал.док-ри.дисс... – Бухоро, 2019. – 145 б.; Қобилова А. Тиббий перифразаларнинг лингвомаданий хусусиятлари: Филол.фан.бўйича фал.док-ри.дисс... – Бухоро, 2022. – 155 б.; Собирова Д.Р. Тиббий рекламаларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол.фан.бўйича фал.док-ри.дисс... – Бухоро, 2022. – 153 б.; Абузалова М.К., Юлдашева Д.Н., Болтаева Н. Тиббий метафораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро: Дурдона, 2021. – 63 б.; Қосимов Э.Й. Шифокорнинг нутқ маданияти ва бемор билан мулоқот санъати. Тиббиёт деонтологияси. – Тошкент, 2002.; Курбанова Н. Тиббиёт ходимлари нутқининг социолингвистик хусусиятлари // CENTRAL ASIAN; Ёрова С. Бевосита тиббиётнинг касб компетенцияси ва унинг деонтологик асослари // “Science and Education” Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) November 2022 / Volume 3 Issue 11. – P. 899-905.; Бабаева Г. Л. “Тиббий дискурс” тушунчаси таҳлили ва тадқиқи масаласи” Scientific aspects and trends in the field of scientific research International scientific online conference. 2023. – P. 77.; Akbarkhodjaeva F. A. “Medical lexis in uzbek media discourse” Volume 3, Issue 6, June – 2025 ISSN (E): 2938-379X. file:///C:/Users/user/Downloads/44.pdf

foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tibbiy diskursning formal, semantik va pragmatik yondashuvlarining qiyosiy tahlili, tibbiy terminlarning ma’no hosil qilishi va funksionallashuvida pragmatik-kognitiv omillarning ustuvorligi, matn – diskurskonsept zanjiri orqali amalga oshishini ifodalovchi integrativ model aniqlangan;

tibbiy diskursdagi metaforalarning kognitiv va kommunikativ tabiati, ularning konseptuallashtirish jarayonidagi o‘rni, gnoseologik, eksplikativ hamda pragmatik funksiyalari, ichki tuzilishi “belgi → metafora → konsept → freym → matn” ketma-ketligi asosida yoritilib, unda metafora konseptni faollashtirishi, freym bilimlarni tizimlashtirib strukturallashtirishi, matn esa mazkur bilimlarning kommunikativ realizatsiyasini ta’minlashi dalillangan;

professional diskursning kommunikativ-semiotik modeli ishlab chiqilib, unda verbal va noverbal vositalarning o‘zaro munosabati, emotsional komponentlar hamda kasbiy-kommunikativ strategiyalar yoritilib, tibbiy diskursning konseptual makoni yadromarkazperiferiya tamoyili asosida tavsiflanib, “sog‘liq”, “kasallik”, “davolash”, “shifokor”, “bemor” konseptlarining iyerarxik munosabatlari, funksional yuklamasi asoslangan;

tibbiy diskursda simptomatik, diagnostik va nozologik matnlar tizimida belgilarni qayta kodlash jarayoni metaforik konseptualizatsiya, freymli bilim strukturasi va derivatsion nominatsiya mexanizmlari birligida tadqiq etilib, tibbiy terminlar hamda tibbiy konseptlarning shakllanishini izohlovchi kognitiv-semiotik komponentlarning lingvistik tasnifi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tibbiy nutqning pragmalingvistik xususiyatlarini tasniflash hamda ularni nafaqat tibbiyot, balki psixologiya, psixogenetika, sotsiologiya, tilshunoslik kabi fanlar doirasida turli aspektlarda o‘rganish asosida chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar lingvopragmatika va lingvokognitologiya masalalarini o‘rganuvchi tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi dalillangan;

shifokor nutqining lingvopragmatik muammolari hamda ularning shifokorbemor munosabati va nutq vaziyati bilan bog‘liq ko‘p qirrali kommunikativ jihatlari aniqlangan;

aloqa ishtirokchilarining kommunikativ va ijtimoiy holati, nutqning maxsus leksik tarkibi (terminologiya), lingvoterapevtik yo‘nalishi hamda nutq birliklari sifatidagi strategiyalarning ahamiyati isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma’lumotlarni berishda ilmiy manbalarga tayanilganligi, xulosalarning zamonaviy lingvistik tahlil metodlari orqali asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, mavzuning jahon tilshunosligining ustuvor ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalarning shifokor muloqotini lingvopragmatik aspektda o‘rganish, muloqotning barcha ekstralingvistik holatlarini, uning makon va zamondagi universal hamda o‘ziga xos diskursiv xususiyatlarini qamrab olish orqali psixolingvistika, kognitologiya, pragmalingvistikaning rivojiga muayyan

darajada hissa qo‘shishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosalar va tadqiqot materiallaridan oliy ta’lim muassasalarining filologiya fakultetlarida hozirgi o‘zbek adabiy tili, matn tahlili, nazariy tilshunoslik masalalari, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, tibbiyot yo‘nalishi talabalari uchun deontologiya fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanmalari yaratishda, ma’ruza, amaliy hamda seminar mashg‘ulotlari, maxsus kurslar o‘tishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shifokor nutqini pragmatik yondashuv asosida o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

tibbiy diskursning formal, semantik va pragmatik yondashuvlarining qiyosiy tahlili, tibbiy terminlarning ma’no hosil qilishi va funksionallashuvida pragmatik-kognitiv omillarning ustuvorligi, matndiskurskonsept zanjiri orqali amalga oshishini ifodalovchi integrativ modelga oid xulosalardan A-OT-2021-2-raqamli, “Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda (2020-2021-yillarda) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2026-yil 2-iyundagi 01-4066-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tibbiy platformada shifokor muloqoti strategiyalari yangi ilmiy manba va ma’lumotlar bilan boyigan;

tibbiy diskursdagi metaforalarning kognitiv va kommunikativ tabiati, ularning konseptuallashtirish jarayonidagi o‘rni, gnoseologik, eksplikativ hamda pragmatik funksiyalari, ichki tuzilishi “belgi → metafora → konsept → freym → matn” ketma-ketligi asosida yoritilib, unda metafora konseptni faollashtirishi, freym bilimlarni tizimlashtirib strukturallashtirishi, matn esa mazkur bilimlarning kommunikativ realizatsiyasini ta’minlashiga oid xulosalardan 2024-2025-yillarda O‘zMTRK Buxoro viloyat teleradiokanalining “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot” eshittirishlari, “Najot bilimda” ko‘rsatuvlarining ssenariysini yozishda foydalanilgan va muallif bilan suhbatlar uyushtirilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokanali davlat muassasasining 2026-yil 21-apreldagi 01-09-42-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu ko‘rsatuv va eshittirishlar tibbiy madaniyat bilan bog‘liq leksik tizim shakllanishiga manba bo‘lgan;

professional diskursning kommunikativ-semiotik modeli ishlab chiqilib, unda verbal va noverbal vositalarning o‘zaro munosabati, emotsional komponentlar hamda kasbiy-kommunikativ strategiyalar yoritilib, tibbiy diskursning konseptual makoni yadromarkazperiferiya tamoyili asosida tavsiflanib, “sog‘liq”, “kasallik”, “davolash”, “shifokor”, “bemor” konseptlarining iyerarxik munosabatlari, funksional yuklamasiga oid tahlillardan “O‘zbek shevalari” nomli darslik (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-sonli buyrug‘iga asosan berilgan 149158-raqamli nashr ruxsatnomasi)da samarali foydalanilgan. “O‘zbek shevalari” nomli darslikdan 60110700O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishida “O‘zbek dialektologiyasi” fani ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarida foydalanib kelinmoqda. Natijada, topshiriqli mashqlar uchun tibbiy matnlar va lingvistik tahlillardan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi

tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (shu jumladan, 3 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 150 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kognitiv terminshunoslik konsepsiyasida diskurs”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tashkil topgan. Bobning “*Kognitiv terminshunoslik yo‘nalishining shakllanish bosqichlari”* deb nomlangan birinchi faslida tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning qaror topishining tarixiy-nazariy shartlari tahlil qilindi va kognitiv terminshunoslikning poliparadigmali fan sifatida shakllanishi asoslab berildi.

Sistema-strukturaviy paradigmaning (tilni egasidan ajratib o‘rganish) kamchiliklari fonida, XX asr oxiri XXI asr boshida tilshunoslikda antroposentrik yondashuv ustuvor bo‘ldi. Bu yondashuv tilni inson ongi, nutqiy faoliyati va ijtimoiy muhiti bilan uzviy bog‘liq holda, umumiy kognitiv mexanizm sifatida o‘rganishni ta’minladi (Sh. Safarov[8], A. Mamatov[9]).

O‘tgan asrning so‘nggi choragida o‘zining ilk qadamlarini qo‘ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J. Lakoff, R. Langaker, R. Jakendoff va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog‘lanadi. O‘zbek tilshunosligida esa bu yo‘nalish namoyandalari sifatida Sh. Safarov, D. Ashurova, A. Mamatov, G‘ Hoshimov kabilarni aytib o‘tishimiz mumkin. Kognitiv tilshunoslik (inglizcha cognizebilmoq, anglamoq, tushunmoq) falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi.

Kognitiv terminshunoslikning paydo bo‘lishi terminologiya rivojlanishining qonuniy bosqichi sifatida qaralib[10], V. Leychik taklif qilgan uch bosqichli tizim tahlil qilindi: 1) material to‘plash; 2) nazariy izlanishlar va tizimlashtirish (funksional

[8] Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 91.

[9] Маматов А. Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий – амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219.

[10]Татаринов В.А. Теория термина: История и современное терминоведение. – Москва: Московский Лицей, 1996. – 311 с.

yondashuv); 3) kognitiv yo‘nalishning shakllanishi davri[11].

Kognitiv terminshunoslik an’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, terminni faqat til birligi sifatida emas, balki bilimni mustahkamlash va bilish natijalarini ifodalash vositasi sifatida tadqiq etadi. U antroposentrik sintezga moyil bo‘lib, terminlarni faqat leksik-semantik emas, balki kognitiv, pragmatik va ijtimoiy nuqtayi nazardan o‘rganishni talab qiladi[12].

Shu asosda, termin kategoriyasining murakkab, ko‘p qirrali tabiatini to‘liq ochib berish uchun L. Alekseyeva ta’kidlaganidek, klassifikatsion (statik) va funksional (dinamik) yondashuvlarning birligi asos bo‘lishi lozimligi isbotlangan[13]. Kognitiv terminshunoslik terminologiyaga “ochiq” fan sifatida yondashadi, bu esa uning integratsiya va fanlararo sintezga moyilligini oshiradi. Bob yakunida, kognitiv terminshunoslikning an’anaviy yo‘nalishlardan farqli ravishda poliparadigmali xususiyatga egaligi, diskursiv (matnga asoslangan) tahlilga urg‘u berishi va terminning matndagi faoliyatini oldingi yondashuvlarga nisbatan to‘liqroq ochib berishi ilmiy asoslangan.

Terminning yaratilishi jarayoni (“terminologiklashuv”) oddiy nomlash emas[14], balki tabiiy til so‘zini chuqur konseptual qayta ishlash natijasi ekanligi asoslandi. Bu esa terminologik tadqiqotlarni insonning lingvomantiqiy faoliyatidagi vazifalarini o‘rganishga yo‘naltirish zarurligini tasdiqlaydi.

Bobning ikkinchi fasli *“Diskurskognitiv terminshunoslikning obyekti sifatida”* deb nomlanadi. Ushbu faslda kognitiv terminshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida diskurs tushunchasining tanlanishi asoslab berildi. Bunda terminning derivatsion tabiatidan kelib chiqib, kognitiv-kommunikativ faoliyatning kompleks birligi sifatida diskursning mohiyati tahlil qilindi.

Termin yaratish jarayoni polifazali derivatsiya (ma’no yoki terminning bir necha bosqichda, turli jarayonlar orqali hosil bo‘lishi) sifatida tushunildi[15]. Termin yaratishni kommunikativ vaziyatga va sotsiomadaniy o‘zaro ta’sirga kiritgan holda o‘rganish zaruriyati tadqiqot obyekti sifatida diskurs tanlanishining asosiy omiliga aylandi[16].

Diskurs tushunchasining definitsion tahlili asosida V. Demyankov taklif qilgan uchta asosiy metodologik yondashuv ajratib ko‘rsatildi[17]: 1) formal yo‘nalish: diskursni og‘zaki – suhbat shaklidagi bog‘langan matn, dialog, nutq akti sifatida tushunish[18]; 2)

---

[11] Лейчик В.М. Предмет, методы и структура терминоведения: Автореф. дис... д-ра филол. наук. – Москва: ИЯ АН СССР, 1989. – 46 с.

[12]Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. В 3 т. Т.2. Направления и методы терминологических исследований: Очерк и хрестоматия. – Москва: Московский Лицей, 1995. Книга 1. – 334 с.

[13]Алексеева Л.М. Деривационный аспект исследования термина и процессов терминообразования: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Пермь: ПГУ, 1990. – 19 с.; Алексеева Л.М. Терминообразование как деривационный процесс И Проблемы деривации в системе языка и в речевой деятельности: синхронное словообразование и номинация: Межвуз. сб. науч. тр. – Москва: ИЯ РАН, 1995. – С. 28-34.; Алексеева Л.М. Метафорическая терминологизация и текстопорождение // Терминоведение. – 1997. № 1-3. – Москва: Московский Лицей, 1997. – С. 109-115.

[14]Татаринов В.А. Теория терминоведения: В 3 т. Т. 1. Теория термина: История и современное терминоведение. – Москва: Московский Лицей, 1996. – 311 с.

[15]Дридзе Т.М. Текстовая деятельность в структуре социальной коммуникации. – Москва: Наука, 1984. – 272 с.

[16]Морозова Л.А. Особенности функционирования специальной лексики в неспециальной литературе И Современные проблемы русской терминологии. – Москва.: Наука, 1986. – С. 107-123.

[17] Демьянков В.З. Доминирующие лингвистические теории во второй половине XX века // Язык и наука конца 20 века. – Москва: Рос. гос. гуманит. ун-т, 1995. – С. 239-320.

[18] Николаева Т.М. Краткий словарь терминов лингвистики текста // НЗЛ. Вып.8. – Москва: Прогресс, 1978. – С. 467-472.

semantik yo‘nalish: diskursni ma’lum bir sohada tildan foydalanish, ya’ni oldindan belgilab qo‘yilgan tafakkur usuli[19] (Fuko asosida) sifatida qarash; 3) pragmatik yo‘nalish: hozirgi kunda eng rivojlangani bo‘lib, nutq vaziyati, nutq ishtirokchilari (so‘zlovchi/tinglovchi), ularning mental jarayonlari (strategiyalar, presuppozitsiyalar)ga e’tibor qaratish[20].

Kognitiv terminshunoslikda diskursning o‘rni. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan diskurs jarayonli, faoliyatga oid hodisa hisoblanadi. U matndan farqli o‘laroq, verbalizatsiya qilingan nutq-tafakkur faoliyati bo‘lib, o‘z ichiga lingvistik va ekstralingvistik qatlamlarni oladi[21]. Shu bois:

Diskurs faqat matn emas, balki tilning amaliy voqelanishi, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchining kognitiv hamda kommunikativ faoliyati bilan uzviy bog‘liq jarayondir.

Diskurs terminni umumiy kognitiv-kommunikativ hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi[22].

Diskurs tahlili fanlararo bilim sohasi bo‘lib, pragmalingvistika va kognitiv tilshunoslikning asosiy obyekti hisoblanadi. Diskurstil, ma’no, ijtimoiy munosabatlar va ong o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganuvchi murakkab fenomen bo‘lib, terminologik birliklarning shakllanishi va semantik rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirib berishda yagona kompleks metodologik obyekt hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida diskurs masalasi turli yo‘nalishlarda tadqiq etilmoqda. Jumladan, Sh. Safarov[23], D. Ashurova, B. Yo‘ldoshev, A. Pardayev, L. Raupova, N. Normurodova, G. Odilova kabi olimlar pragmatik tilshunoslikda diskursning turli qirralarini o‘z tadqiqotlarida yoritib berishgan[24]. Olim N. Turniyozov sintagmatik munosabat va diskurs shakllanishi masalalariga[25] batafsil to‘xtalib o‘tgan. U diskursning aksariyat hollarda ikki va undan ortiq gaplarning, murakkab sintaktik qurilmalarning o‘zaro bog‘lanishidan tashkil topishini ta’kidlaydi.

Birinchi bobning *“Diskurs – belgi faoliyati sifatida”* deb nomlangan uchinchi faslidagi tahlil diskursni belgi faoliyati sifatida tushunishga asoslangan bo‘lib, nominativ birlikni yaratishning kognitiv-psixolingvistik modeli (so‘zdan fikrga va fikrdan so‘zga[26])ni yoritishga va bu model orqali terminologik birlikning rivojlanish

---

[19] Аберкромби Н., Хилл С., Тернер Б.С. Социологический словарь. – Москва: Экономика, 2000. – 428 с.

[20] Языкознание. Большой энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 1998. – 685 с.

[21] 190. Краткий словарь по социологии // Под общ. ред. Д.М. Гвишиани, Н.И. Лапина. – Москва: Политиздат, 1988. – 479 с.

[22] Николаева Т.М. Краткий словарь терминов лингвистики текста // НЗЛ. Вып.8. – Москва: Прогресс, 1978. – С. 467-472.

[23] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: 2008 yil.

[24] Сафаров Ш. Лингвистика дискурса. – Челябинск, ЧГКИ, 2018, – 315 с.; Прагмалингвистика. – Тошкент: 2008. – 318 б.; Ашурова Д.У. Стилистические и прагматические аспекты словообразования английского языка: Дисс... кан. филол. наук. – Ташкент, 1993. – 405 с.; Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – 37 б.; Пардаев А. Дискурсив юкламаларнинг прагматик вазифаси хусусида // Бадиий асарларни шарҳлаб ўрганиш: тарих, тажриба, технология. Республика илмий конференцияси материаллари. – Тошкент: ТДПУ, 2014. – Б. 197-200; “Дискурсив юкламалар” ҳақида // Республика ёш олимлар илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ЎзФА, 2014. – Б.271-272; Дискурсивные маркеры в узбекском языке // Дискурсология: язык, культура, общество: материалы XIII Международной научной конференции. – Луганск: ЛНУ, 2014. – С.81-91.

[25] Турниёзов Н. Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар // Хорижий филология. № 4, 2016 йил. – Б. 10-13.

[26] Семиотика: Антология. – Москва: Акад, проект; – Екатеринбург, Дел. кн., 2001. – 702 с.

bosqichlarini tasniflashga qaratilgan.

Diskursning integrativ modeli verbal (tashqi, so‘zlovchi faoliyati) va mental tasvirlar (ichki, tinglovchi/idrok etuvchining aqliy, psixik faoliyati) komponentlarning birligidan iborat ekanligi ko‘rsatildi. Mental tasvirlar o‘z ichiga tilga oid bilimlar (grammatika, lug‘at, nutq aktlari) va tilga tegishli bo‘lmagan bilimlar (dunyo, voqealar, holatlar haqidagi ma’lumotlar) bazasini qamrab oladi.

Tadqiqotda nominativ birlikni yaratishning kognitiv-psixolingvistik modeliga asosiy e’tibor qaratildi. Bu model nomlash jarayonining quyidagi to‘rt bosqichini o‘z ichiga oladi:

1. Shaxsiy konsept shakllanishi bosqichi: Tashqi ma’lumotlarning shaxsiy tajriba, bilimlar va motivlar asosida ongli idrok etilishi (masalan, geshtalt shakllanishi) jarayoni.

2. Tashqi muhitni anglash bosqichi: Tashqi ijtimoiy faoliyatning ichki ruhiy tuzilmaga o‘tkazilishi. Bu bosqichda verbalgacha reprezentatsiya[27] (so‘zgacha ma’no) va L. Vigotskiyning nazariyasiga muvofiq konsept (bilimning butunlikni saqlovchi birligi) shakllanadi[28].

3. Ichki dasturlash bosqichi: Konseptni nomlashning onomasiologik tuzilmasini yaratishga tayyorgarlik ko‘riladi[29]. Bunda fikr qismlarga bo‘linadi va kelajakdagi ibora sxemasi izlanadi[30]. Bu jarayonda qisqartirilgan ichki nutqdan foydalaniladi[31] (A. Leontyev, L. Vigotskiy). L. Vigotskiyning ta’biricha: “Fikrbulut, u nutqni tomchilar shaklida tarqatadi”, ya’ni muayyan bir butun tuzilma nutqning chiziqli tashkil etilgan, tillashgan ifodasiga aylanadi[32]. Ichki dasturlash jarayoni kognitiv modeldagi bo‘g‘inlarni ravshanlashtiradi va tanlab, eshitiladigan yoki o‘qiladigan nutqqa tayyorlaydi.

4. Paradigmatik va sintagmatik bosqich: Nominativ birlik tashqi nutqqa chiqqanidan so‘ng, sintagmatizatsiya (matnga joylashish, bog‘lanish) va paradigmatizatsiya (grammatik va semantik tizimga kiritilish[33], so‘z yasash paradigmasida o‘rin olish) orqali to‘liq belgi shakliga kiradi.

Matnda berilgan “qon” so‘zi orqali til belgisining diskursdagi rivojlanish ketma-ketligi tasvirlab berildi: *Boshlang‘ich (anatomik) belgi → Metabelgi (ilmiy/tibbiy) → Protobelgi (assotsiativ qo‘llanish) → Matndagi metamatn (kontekstual ma’no) → Ikkinchi darajali nominatsiya (metafora) → Ikkinchi darajali belgi (ramziy, madaniy ma’no).*

Diskurs belgining rivojlanishi, nutqning yaratilishi va qabul qilinishi, matn (tizimli belgi) va metamatn (individual belgi)ning birligida namoyon bo‘luvchi murakkab va ko‘pkomponentli jarayon hisoblanadi. U kognitiv terminshunoslik uchun yagona integrativ obyekt sifatida terminologiklashuvning kognitiv mexanizmini tadqiq etishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning “**Tibbiy birliklarning kognitiv va diskursiv asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobi ham uch faslni o‘z ichiga oladi. Ushbu bobning *“Tibbiy*

---

[27] Никитина С.Е. Семантический анализ языка науки. – Москва: Наука, 1987. – 143 с.
[28] Белый А. Символизм как миропонимание. – Москва: Республика, 1994. – 528 с.
[29] Выготский А.С. Избранные психологические исследования. – Москва, 1956.
[30] Российский энциклопедический словарь: В 2 кн. Кн.1. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 2000. – 1023 с.
[31] Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – Москва: Изд-во МГУ, 1981.
[32] Выготский Л.С. Мышление и речь И Собр. Соч. В 6 т. Т. 2. – Москва: Педагогика, 1982. – С. 5-362.
[33] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. – 261 с.

*diskursda metaforaning kognitiv asoslari”* deb nomlangan birinchi faslida tibbiy diskursdagi metaforaning kognitiv terminshunoslik uchun fundamental ahamiyati asoslab berildi. Bunda metaforaning oddiy nutq bezagi emas, balki bilish, tasniflash va yangi terminlarni yaratishning kognitiv mexanizmi ekanligi tahlil qilindi.

J. Lakoff va M. Jonson nazariyasiga asoslanib[34], metafora faqat tildagi hodisa emas, balki tafakkur va amaliy faoliyatning asosiy mental hodisasi sifatida qaraldi. Kognitiv terminshunoslikda u “oldindan mavjud bilimdan foydalanib, dunyoni anglash usuli” deb talqin etiladi. Uning roli bilimni yangi manba sohasidan mavhum maqsad sohasiga (masalan, tibbiyotga) proyeksiya qilish, ya’ni yangi reallikni mavjud terminlar asosida tuzishda namoyon bo‘ladi.

Kognitiv metafora asosiy urg‘uni bilim yaratish va tartibga solishga qaratadi. Badiiy metafora asosan estetik ta’sir va emotsiyaga xizmat qilsa, kognitiv metafora “umumiydan xususiyga” qaratilgan ma’noviy vektor bilan, kasallik jarayonlarini ilmiy modellashtirishga xizmat qiladi.

Tibbiy diskursda metafora gnoseologik, eksplikativ va fatik funksiyalarni bajaradi[35]:

Gnoseologik (bilish): Ilmiy tushunchani soddaroq va obrazli anglashga yordam beradi.

Eksplikativ (tushuntirish): Murakkab klinik belgilarni keng auditoriya uchun tushunarli qilib yetkazadi.

Fatik (aloqa o‘rnatish): Emotsional ta’sir kuchini oshiradi va axborotning tez tarqalishini ta’minlaydi.

Tibbiy metaforalar nafaqat tashxisni aniq ifodalash, balki terminologiyani yangilash va psixologik ta’sirni oshirishga xizmat qiladi. Tahlil natijasida quyidagi konseptual modellar ajratib ko‘rsatildi:

1. Tabiat metaforalari. Yurak kasalliklarida “yurak-tana motori”, “yurak-nasos”; qon kasalliklarida “qon-hayot daryosi”, “qon-ichki olov” kabi obrazlar qo‘llanadi. O‘sma kasalliklarida esa “yovvoyi o‘simlik”, “bosqinchi”, “dushman”, “parazit”, “ijtimoiy virus” kabi salbiy assotsiatsiyalar ustunlik qiladi.

2. Rang metaforalari. “Qora o‘lim”, “oq qon”, “sariq kasallik” kabi birikmalar rang orqali xavf, kasallik va uning belgilariga ishora qiladi.

3. Termin-metaforalar. “Ichak devori”, “jigar qobig‘i” kabi tibbiy atamalar metaforik nomlash asosida shakllangan.

Vaqt o‘tishi bilan bunday birliklar terminologik tizimga singib, dastlabki metaforik obrazliligini yo‘qotadi. Biroq metaforaga asoslangan terminlar tibbiy tushunchalarni anglash va izohlashda muhim model vazifasini bajaradi. O‘zbek tilshunosligida tibbiy metaforalarni tadqiq qilgan olima F. Abdulxairova[36] ularni 8 guruhga bo‘lib tasniflaydi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy metafora – bu tibbiy bilimni tasvirlashning asosiy modellaridan biri bo‘lib, u kasallik holatini tushuntirish va talqin qilishda, shuningdek,

---

[34] Lakoff G., Johnson M. 2003. Metaphors We Live By. – Chicago and London, The University of Chicago Press, 276. (in English)

[35] Merakchi K. 2010. The translation of metaphors in science and popular science articles. The Jordan International Conference on Translation (JICOT) (30 November – 2 December 2010) Amman, Jordan. Available at: https://www.uop.edu.jo/download/Research/members/The%20translation%20of%20metaphors%20in%20science%20and%20popular%20science%20articles.pdf (accessed 12 April 2018). (in English)

[36] Абдулхаирова Ф.И. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филол. ф. бўйича фалс. док. (PhD) дисс. автореф… – Тошкент: 2021. – 47 б.

professional va oddiy diskurs o‘rtasida samarali kommunikatsiyani ta’minlashda muhim kognitiv vosita rolini o‘ynaydi. Uning modeli va mexanizmlarini o‘rganish orqali termin yaratish jarayonlarining kognitiv asoslarini aniq tadqiq qilish mumkin.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“Tibbiyot diskursida matnlar tipologiyasi”* deb nomlangan bo‘lib, unda tibbiy diskursning nazariy asoslari, uning ijtimoiy-madaniy funksiyasi tahlil qilinib, eng muhimi, klinik diagnostika jarayoni asosida ilmiy matnlar tipologiyasi ishlab chiqildi.

Matn (dunyoni anglash, gnoseologik) va nominatsiya (obyektlarni semiotik farqlash, kommunikativ) funksional jihatdan farqlansa-da, tuzilish nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqin turadi. Nominatsiya bir so‘z, so‘z birikmasi, hatto diskurs yoki butun matn orqali ham voqelik obyektiga ma’no berish jarayonini ifodalaydi.

Klinik diagnostikaning kognitiv bosqichlari: Tibbiy matnning strukturasi klinik diagnostikaning uch bosqichli bilish jarayoni bilan bevosita bog‘liq ekanligi asoslandi:

1. Dastlabki bilish bosqichi (kuzatish): Kasallik belgilari, simptomlarning tasviri (tanib olish jarayoni).
2. Empirik bilish bosqichi (klinik tekshirish): Olingan ma’lumotlarni umumlashtirish, gipotezani tasdiqlash/inkor etish (Eksperiment).
3. Nazariy bilish bosqichi (bemor konsepsiyasining shakllanishi): Mantiqiy mulohaza, diagnostik xulosa chiqarish.

Tibbiy matnlarning kognitiv model asosidagi tipologiyasi: Klinik diagnostika bosqichlariga mos keluvchi uch asosiy tibbiy matn turi ajratildi[37]: (*1-jadval*)

**1-jadval**

| **Matn turi** | **Asosiy funksiya** | **Kognitiv bosqich** | **Namoyon bo‘lishi** |
|---|---|---|---|
| Tasvirlovchi (simptomatik matn) | Ma’lumotni anglash | Ilmiydan avvalgi (Kuzatish) | Faqat simptomlar tasvirlanadi, tahlil yo‘q. Nomlash obrazli, hodisa darajasida (Masalan: *“Tomog‘i go‘yo yonib turgan olovday qizargan”*). |
| Hikoyaviy (diagnostik matn) | Voqea va harakatlar ketma-ketligini bayon etish. | Empirik (Klinik tekshirish) | Simptomlar mantiqiy tahlilga tortiladi. “Simptom → Tashxis” tizimi shakllanadi, ma’no yuklanadi (Masalan: *Bemorning holati va tekshiruv natijalari asosida tashxis qo‘yishga harakat*). |
| Tahliliy (nozologik matn) | Mantiqiy munosabatlarni, sabab-oqibatni aniqlash. | Nazariy (Bemor konsepsiyasini shakllantirish) | Kasallikning nazariy jihatlari, etiologiyasi, ta’rifi, turlari izohlanadi va konsept hosil qilinadi (Masalan: *O‘tkir respirator infeksiyalarning nazariy ta’rifi*). |

Tibbiy matn nafaqat ma’lumotlarni bayon etish vositasi, balki bilish jarayonining kognitiv ifodasi hamdir. Simptomatik matnlar obrazli nomlash (nominatsiya) orqali tabiiy belgini ikkinchi darajali semiotik belgiga aylantiradi. Diagnostik matnlar esa bu belgilarni sindrom yoki simptomokompleks sifatida birlashtirib, unga ma’no yuklaydi va talqin

[37] Жамолхонов Ҳ. Йўлдашев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили (Маърузалар матни). – Тошкент, ТДПУ., 2000.

qiladi.

Bu fasl terminologik tahlil uchun bevosita asos bo‘ladi, chunki u tibbiy belgilarni qayta kodlash va nomlash jarayonini (simptomatik matndan nozologik matnga o‘tish) yoritib beradi.

Ikkinchi bobning *“Tibbiy metafora semiotik hodisa sifatida*” deb nomlangan uchinchi faslida mazkur hodisaning tuzilish turlari tadqiq etilgan. Ushbu faslning asosiy maqsadi tibbiy metaforani belgilarni qayta kodlash mexanizmi hamda matn yaratishning fundamental jarayoni sifatida asoslashdir.

Tibbiy matnning har bir turi (simptomatik, diagnostik, nozologik) belgi ma’nosining o‘zgarishiga mos keladi va muayyan turdagi metaforalarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Konsept: tibbiy diskursda verbal shakl vositachiligidagi faoliyat konseptualizatsiya jarayonida amalga oshiriladi. Konsept insonning mental dunyosidagi bilimlar (freymlar)ning to‘liq ko‘lami (V. Teliya)[38] hisoblanadi.

Freym va slotlar: konseptning ichki tuzilishi freymga ega bo‘lib, u iyerarxik tashkil etilgan ma’lumotlar strukturasi vazifasini bajaradi: (*2-jadval*)

**2-jadval**

| **Tibbiy diskursda “chechak” konsepti freym va slotlar orqali** | |
|---|---|
| **Freym** | **Slotlar** |
| Ta’rif | Odam va hayvonlarning o‘tkir yuqumli kasalligi |
| Sabablari | Viruslar (Variola virus) |
| Tarixi va rivojlanishi | Qadimgi Misr, Xitoy, Yunon va Rim tibbiyoti |
| Klinik belgilari | Suvli pufakchalar, isitma, zaharlanish |
| Davolash va profilaktika | Emlash, simptomatik terapiya |
| Ijtimoiy vosita sifatida qo‘llanilishi | Frazeologizmlarda ma’naviy mazmun |
| Morfologiya va sintaksisdagi roli | Ot, bosh yoki ikkinchi darajali bo‘lak vazifasi |
| Etimologik tahlil | Qadimgi turkiy tildan kelib chiqishi |

Ko‘pgina tibbiy terminlar (stomatologiya, urologiya, oftalmologiya, nevrologiyada) kognitiv metaforalar orqali shakllanadi. Metafora abstrakt tushunchalarni inson tafakkuriga yaqin bo‘lgan kundalik obrazlar orqali anglashga xizmat qiladi:

Fazoviy metaforalar (Makon): *old tish, buyrak usti bezi* (“ust” yuqori joylashish), *peshob yo‘li*.

Idish/kiyim metaforalari: *milk yoqasi* (kiyim chegarasi), *buyrak kosachasi/jomi* (suyuqlik saqlanadigan idish), *qovuq* (xalta/qopcha), *ko‘z qobig‘i* (himoya).

Tabiat/hayotiy obrazlar: *sut tish* (bolalik), *aql tish* (yetilganlik), *tish ildizi* (mahkam ushlash), *qurtlagan tish* (chirish), *urug‘ bezlari* (nasl qoldiruvchi asos).

So‘z ma’nosining o‘zgarishi orqali umumxalq tilidagi so‘z (*chechak*) ma’nosi ilmiy kontekstda mustaqil terminga aylanadi va o‘zining ilk ma’nosi bilan metaforik munosabatga kiradi.

Bu fasl tadqiqotning metodologik asosi hisoblanib, keyingi tahlillar uchun terminlarning aynan metaforik tabiati va konseptual bazasini o‘rganishga zamin yaratadi.

